

## INSONLAR MULOQOT VOSITASITALARI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ASSOSATIV XOTIRANING AHAMIYATI

Yo'ldosheva Shahodat Olimjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti.

E-mail: [Shahodatyoldosheva05@gmail.com](mailto:Shahodatyoldosheva05@gmail.com)

**Anotatsiya:** Maqola bugungi dunyoning turli burchaklaridagi insonlar osongina munosabatga kirisha olish imkoniyatiga ega davrda tilning muloqot vositasi sifatida muhimlik darajasi, muloqot uchun boshqa muhim bo'lgan omillar haqida yoritadi. Shuningdek, inson ongida ma'lumotlarni qabul qilish va saqlab qolishda muhim bo'lgan assosativ xotira, uning funksional xususiyatlari va biz uchun ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy tilshunoslik, klassik tilshunoslik, xotira, assosativ xotira, anglash.

**Annotation:** The article sheds light on the level of importance of language as a means of communication and other important factors for communication in the era when people in different parts of the world can easily communicate. Also, the associative memory, which is important for receiving and storing information in the human mind, its functional properties and its importance for us will be revealed.

**Keywords:** modern linguistics, classical linguistics, memory, associative memory, understanding.

**Аннотация:** Статья проливает свет на уровень значимости языка как средства общения и других важных факторов общения в эпоху, когда люди в разных частях света могут легко общаться. Также будет раскрыта ассоциативная память, важная для получения и хранения информации в сознании человека, ее функциональные свойства и ее значение для нас.

**Ключевые слова:** современное языкознание, классическое языкознание, память, ассоциативная память, понимание.

### Kirish

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangani sari avvaliga insonlar muloqot uchun yangi til o'rganishga ehtiyoj sezmay qo'yadigandek tuyulgandi, ammo sun'iy intellekt kirib ham kelibdiki, insonlar hali ham til o'rganishga yoki tarjimonlar xizmatiga ehtiyoj sezmoqdalar. Quyida buning sabbalari va tillarning hususan o'zbek va rus tillarining zamonaviy xususiyatlari, jumladan assosative xotiraga bog'liq jihatlari o'rganiladi.

Hozirgi davrda, insonlar muloqoti jarayonida zamonaviy dasturlar (google tarjimon, yandeks tarjimon) suhbatdosh fikrni tushunishga yordam bersada, ular insonlar fikrlarini ular istagandek yetkazib bera olmaydi. Bunda ularga inson omilidagina bo'lgan boshqa nonverbal (nigohlar, ohang, yuz ifodalari) vositalar yordamida mohiyatni yetkazish qobiliyati yetishmaydi. Insonlar orasidagi muloqot jarayoni nafaqat til va undagi gap va so'zlardan, balki milliy analarga asoslangan xususiyatlardan ya'ni faqat bir hududda yashaydigan insonlar uchun aniq va tushunarli bo'lgan iboralar, biror ommaviy voqeaga ishora qiluvchi so'zlardan iborat vositalar muloqot

davomida suhbatdoshga tasir qilish uchun katta ahamiyatga ega.. Ko'rinib turibdiki, muloqot qurishda birgina til vositasining o'zi yetarli emas. Gapiruvchi ishlatayotgan iboralar orqali nima demoqchi ekanligini tushunish uchun, ishoralari va tana harakatlari orqali ongsiz ravishta qanday informatsiya yetkazmoqchiligi anglashiladi ( 1971-yil, Albert Mehrabia) . Shu sababdan ham vertuallashgan dunyoda yuzma- yuz uchrashuvlar qadri oshib bormoqda.

Klassik tilshunoslikda tilning Grammatik xususiyatlarini o'rganish anana tarzida bo'lgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikda bu ananalar bir oz o'zgarganini ko'rish mumkin. Fan taraqqiyoti tufayli tilshunoslik bo'limida ham psixolingvistika, nevrolingvistika , kognitivlingvistika, korpus linguistikasi kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. Quyida psixolingvistika va kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan bir bo'lgan" assosativ xotira" tushunchasini ko'rib chiqamiz.

Assotsiatsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "uyushma" ma'nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ilm-fanning turli sohalarida qo'llaniladi va shunga ko'ra, turli xil tasnifga. Psixolingvistikada bu so'z tushuncha va so'zlarning miyyada boshqa bir tushuncha bilan bog'langanligi ma'nosini bildiradi. Assosativ xotira inson miyyasi funksialaridan biridir va u so'z va tushunchalarni tushunish va tushuntirishda asosiy rolga ega. Shu bilan birga paradokasal ravishta har bir assosative tushunchalar individualdir. Ya'ni "gul"so'zini eshitganda ko'z o'ngimizda gul gavdalanadi. Ammo u moychechakmi, atirgulmi, bir donami, bir dastami, qizilmi yo sariq bu aniq emas. Har bir individual shaxsda turlicha. Aynan mana shu jarayon psixologiya asoslarini lingvistika bilan bog'lashga sabab bo'ladi.

Xotira tushunchasining o'zi xususiyatiga ko'ra turlarga bo'linadi. Xotirani faktlar yoki epizodlar uchun deklarativ xotiraga va ko'nikma yoki odatlar uchun protsessual xotiraga bo'lish mumkin. Deklarativ xotira va protsessual xotira neyronlar tasirlashuv jarayonlariga ko'ra farq qiladigan ikki xil xotira sifatida ko'rish mumkin.. Deklarativ xotiraning o'zi qisqa muddatli xotira va uzoq muddatli xotiraga bo'linadi. Qisqa muddatli xotira - bu bir necha daqiqalar yoki soniyalar mobaynida oldingi epizod yo malumotlarni yodda saqlab turish bo'lsa uzoq muddatli xotira bir necha soat yoki kunlar oldingi ma'lumotlarni yodda saqlashdir. Bundan tashqari, mustahkam (retrograd) xotira turi ham mavjud bo'lib, unda malumotlar o'nlab yillar mobaynida xotirada i saqlanadi

Til tarkibidagi so'z, ibora va shu kabi birliklar miyada turli voqea yoki tushunchalar bilan bog'liqlikka (assotsatsiyaga) kirish orqali, xotirada saqlanadi. Ushbu xotiralar yangi ma'lumotlar qabul qilinish jarayonida tahlil va qiyoslash jarayonida faol ishtirok etadi va o'sha eski malumotlarga bog'lagan holda yangi ma'lumotlar miyyaga qabul qilinadi. Yangi bilimlar olish, til o'rganish, fanda yangilik yaratishda assosativ xotiraning ahamiyati muhim bo'lgani sabab ko'pgina olimlar uni o'rganishmoqda., chunki ongimiz shu orqali ma'lumotlar mohiyatini tushunib yetadi ya'ni anglaydi Misol uchun: O'zbekiston Milliy Universiteti talabalari tomonidan Eksperiment o'tkazildi , tajriba orqali insonlar lisoniy ongida ranglar qanday tassavvur bilan yadroviy va perferik assosatsiya bo'lishini aniqlash va shu orqali rang tasvirlari orqali insonlarga yaxshiroq ta'sir qilishni o'rganish maqsad qilingan edi eksperimentda 18-63 yoshlar orasidagi o'zbek hamda rus tili ona tilisi bo'lgan ishtirokchilar qatnashdi..unga ko'ra o'zbek tilida so'zlashuvchi insonlar lisoniy ongida oq rang eng ko'p "tinchlik" so'zi bilan, rus tilida so'zlashuvchi insonlar uchun "tozalik" tushunchalari bilan bog'langan. Qizil rang o'zbekzabonlar uchun "qon", rusiyzabonlar uchun "sevgi", yashil rang o'zbekzabonlar uchun "tabeat", rusiyzabonlar uchun "maysa" (bir biriga yaqin tiushunchalar bilan, hamda har ikkala avditoriya uchun qora rang "tun" ni, ko'k rang esa" osmon" tushunchasi bilan bog'liq.

Anglash nima uchun kerak, qachon biz anglaganimizni bilamiz va bu anglash bizga qanday naf keltiradi? Xoh u tilshunoslikdagi biror tushunchani anglash bo'lsin, xoh biror so'z manosini anglash, xoh boshqa sohada biror jarayonni anglash bo'lsin, anglashdan asosiy maqsad natijaga boruvchi yo'nalishi to'g'riligini aniqlash, xato bo'lsa to'g'irlashga qaratilgan. Masalan: suhbatdoshingiz nima deganini to'g'ri tushunish uchun so'zlar qo'llanilishi va ular birgalikda kasb etadigan ma'noni anglashga harakat qilasiz, joiz bo'lsa tushunganingizni qaytarib to'g'ri tushunganingizni ya'ni anglaganingizni so'rab, ishonch xosil qilasiz. Anglash miyya faoliyatining ongli qismiga aloqador hodisa ammo u ongsiz ravishda kechadigan jarayonlarga boshqaruchi sifatida tasir o'tkaza olishi, butun jarayon mohiyatini o'zgartirib yubora olishi mumkin. , misol uchun: avvaliga shunchaki taqiqlangani uchun , javobgarligi borligi uchun ko'chaga ahlat tashlamaydigan inson, bir dona tashlangan poletilin paket ellik yilgacha chirmasligini, biz kuniga chiqarayotgan tonnalab poletilinni yer hazm qilishga ulgurmasligini anglagach, endi boshqa qarashda, Yerga kamroq zarar berish istagida ahlat tashlaydi.

### Xulosa

Bu kabi anglashlar bilan dastlab hech qanday jiddiy o'zgarishga erishmasdek tuyulsak ham, insonlar ko'proq anglagani sari o'z muammolari ildizini bir nuqtada ko'ra boshlaydilar va tasavvur yaxlit ko'rinish oladi va muammoga umumiy yechim izlana boshlashi mumkin. Masalan: jamiyatning turli bo'g'inlarida: oilada kelishmovchiliklar, talabalar va professorlar o'rtasidagi jarliklar, davlat va xalq bir birini eshitmasligi muammolarini tahlil qilinib ildiziga chuqur kirilsa, muloqot yetishmasligi asosiy sabab ekanini anglanishi mumkin. Kasallik sababi aniqlangach esa uni davolash albatta osonlashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daniel Kahnimen “Thinking fast and slow”, Library of Congress Cataloging-in-Publication, 1934 / 1st ed. – P. 42.
2. Davron Turdiyev “Defolt tizim” kitobi, Toshkent, “Super 30 kun” o'quv kursi, 2022.
3. Yulo Volglayd “Vatandoshlik dasturi” kitobi, “Azon” kitoblar nashriyoti 2023, Toshkent, I bob.
4. Zi-Jian Cai “Semantic Memory Association, Procedural Grammar Syntax and Episodic Modality Coordination as Three Interactive Neural Processes Organizing Language”, 2015, A Model. Open Access Library Journal, 02,1-9. doi: 10.4236/oalib.1101718
5. Comparing Face-To-Face Communication with Online Communication | by Shinni | Medium
6. Quyidagi ranglarni ko'rganingizda hayolingizga kelgan ilk tushunchani yozing (google.com)
7. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
9. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
10. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in

- Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering.  
 – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
11. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
  12. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
  13. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
  14. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
  15. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
  16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
  17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
  18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
  19. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
  20. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
  21. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
  22. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
  23. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).